

## XOTIRALAR ORQALI AKS ETGAN HAYOT MANZARALARI

**Esanova Oybarchin Xursanali qizi***Fan va texnologiyalar univ. universiteti**o‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Said Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asari tahlil qilinadi. Asarda yozuvchining hayot davomida boshdan kechirgan voqealari, uchrashgan insonlari va orttirgan hayotiy tajribalari xotiralar orqali yoritib beriladi. Muallif o‘z xotiralari orqali hayotning turli manzaralarini, insoniy munosabatlar, yo‘qotish va topish jarayonlarini samimiy va ta’sirchan tarzda tasvirlaydi.

**Kalit so‘zlar.** Xotiralar, Said Ahmad, Saida Zununova, vatan, adiblar, mukofotlar.

**Annotation.** The article analyzes the work “Yo‘qotganlarim va topganlarim” by Said Ahmad. The work describes the events experienced by the writer throughout his life, the people he met, and the life experiences he gained through memories. Through his recollections, the author sincerely and vividly portrays different aspects of life, human relationships, and the processes of loss and discovery.

**Keywords.** Memories, Said Ahmad, Saida Zunnunova, homeland, writers, awards.

O‘zbekiston qahramoni S.Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asaridan ustozlar va zamondoshlarining murakkab taqdiri, ruhiy kechinmalari, yashash tarzi, dard alamlari haqida yoritilgan asardir. S.Ahmad o‘z asarlari orqali hayotning yorqin va ko‘p qirrali qiyofasini chizadi inson tuyg‘ulari munosabatlariga chuqur kirib boradi. Sadoqat, mehr-oqibat, insonparvarlik va ishonch mavzulari uning ijodi davomida jaranglab hayot qiyinchiliklarini yengishda axloqiy qadriyatlar muhurligini ta’kidlaydi. Ushbu kitob muallifi-O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmad hozirgi kunda unitilmas xotiralarga aylangan atoqli adabiyot arboblari bilan uzoq vaqt birga bo‘lgan. Ularga safarlarda hamrohlik qilgan. Xalqimiz ardog‘idagi bu benazir insonlarning nurli kunlaridan ham alam-istirob chekkan onlarida ham yonlarida bo‘lgan. Xotiralarda adabiy to‘qimalar yo‘q. Tasvirlangan voqealar sinchikovlik bilan kuzatilgan, yozuvchining o‘tkir nigohlaridan o‘tgan sof haqiqatdir. Kitobning birinchi bobiga tilga olingan va ajib mehr bilan tasvirlangan ustozlar endi yo‘q Ular xalqqa, vatanimiz badiiy hazinasiga qimmatbaxo gavharlar qoldirib yo‘qlik sari ketganlar. Ikkinchi bobida xalq hunarmentiga sazovor bo‘lgan yozuvchilar, kitob muallifi shogirtlar to‘g‘risida qaynoq fikrlar bayon qilinadi. Uchinchi bobda goh nurli, goh nursiz kunlarni boshdan kechirgan muallifning iztiroblari, ko‘p mashaqqatlar bilan topgan iqboli to‘g‘risida ta’sirli fikrlar bayon qilinadi.

Said Ahmad O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘zbekiston qahramoni, dramaturg va kitobxonlarning sevimli adibidir. Said Ahmad o‘zining hikoyalari, maqolalari, realistik qissa va romanlari, tomoshabop komediyalari bilan o‘zbek adabiyotda o‘z o‘rniga ega. Said Ahmad ijodida nasirning barcha janrlarini uchratshimiz mumkun. Ayniqsa hajviy yo‘nalishdagi asarlari o‘zbek adabiyotda salmoqli o‘rin egallaydi. Yozuvchining “Hanka bilan Tanka”, “Bir o‘pichning bahosi”, “Otpuska”, “Olqindi”, “Lampa shisha”, “Xotinboz chumchuq”, “Sobiq” kabi hajviy hikoyalari bor. Said Ahmad boshdan kechirgan kunlarini shunday xotirlar edi. Bazan hayol olib ketadi. O‘tgan yo‘laringa boskan izlaringa qaraysan kimlar yurgan yo‘ldan kelding, kimlar bosgan izlarni bosding hamma-hammasini ko‘rasan. Qanday yashading, kimlar bilan bir dasturxonda risqingni bo‘lishding. Kimlardan mehribonlik ko‘rding, kimlardan pand yeding, ko‘z oldingdan bir-bir o‘taveradi. Yorqin umidlar bilan yo‘lga otlangan homrohlarining qani, deb o‘zimdanda o‘zim so‘rayman. Adib kunlar o‘tgan sayin qadirli bo‘lgan insonlarini xotirlar ular haqida hayol surar edi. Chunki ularni xotirlab kitoblar yozgan hatto. Umir shunday narsada bir zumda keladi, bir zumda esa ketadi. Muhimi tarixda qanday nom bilan qolish. Boshidan kechirgan kunlarni adib kitobning so‘ngi qismida ta’kidlab ketadi.

Ming to‘qqiz yuz yettinchi yilning o‘ninchi may kuni qo‘limga kishan solib haydab ketayotganlarida baland imoratlarning peshtaxtalariga azamat teraklarning uchlariga endigina oftob tusha boshlagan tong mahali edi. Tug‘ulgan yurtin ona shahrim Toshkent bilan vidolashdim [1].

Mana insonning ichdan o‘tgan azobi, dardi vatan sog‘inchi uni qiynar undan ayrilgisi kelmas edi. Lekin o‘sha davrning muhiti, qonunlari bunga yo‘l qo‘ymadi. Qandaydur tuhmat orqali vatandan ayrilgan Said Ahmad vatani balki rafiqasi Saida Zunnunova bilan ham sinalgan. Rafiqasi bilan qisqa hayot kechirgan ammo mazmunli va baxtli kunlari bo‘lgan. U rafiqasiga atab “Shoiraning feruza olami” satrida bosib o‘tgan hayotiy hikoyalarini so‘zlagan. Rafiqasidan ayrilgan Said Ahmad uni tez-tez yod etib turadi.

Saidaxon bizni tashlab ketgandan bir oy o‘tib o‘sha jiyda qiyg‘oz gulladi. Chamandek gullagan shohidan sindirib qabriga olib bordim [2].

Adibning sevgisi, sabri, mehribonligi, kuchli va fidokoronaligi taqsinga sazovor. U birgina bu asarda emas balki butun yaratgan asarlarini kitobxonlar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda va insonlarning qalbidan alohida joy olmoqda. Ko‘plab ordenlar sohibi Said Ahmad u oxirgi olgan ordeni taqdirlash marosimini eslab kitobning satirlariga bitgan, asarning so‘ngi sahifalarida shunday yozadi.

“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan... Bu men. Meni chaqirishyapti. O‘rnimdan turib, Prezidentimiz tomon yura boshladim. Yuryapmanmi, havoda suzyapmanmi, idrok qilolmasdim. O‘zمنى qo‘lga olishga harakat qilaman. Prezident lentaga birlashtirilgan ordeni

bo‘ynimga osib qo‘yayotganda mijjalirimda yosh qalqidi. Bir kiprik qoqsam duv to‘kiladi. Chidadim. “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni qo‘limga olib qarayman. “Buyuk” so‘zini o‘qiganimda yetmish yetti yillik g‘uborlarim tarqab ketgandek bo‘ldi. Ko‘rgan jabru jafolar tumandek g‘oyib bo‘ldi. O‘zbekistonim! Jonim, jahoni! Men sening o‘g‘lingman. Buyur, ona bo‘lib buyur, ota bo‘lib buyur! Tog‘lar oshay, daryolar kechay, sahrolarni kezay. Buyur, buyur! [3].

Bu inson qanchalar vatan uchun fidokor bo‘lganini shu satirlardan ham bilib olishimiz mumkin. Yurti xalqi uchun qo‘lidan kelgan barcha amallarni qilgan joni bilan hizmat qilib vatanni onaga, otaga qiyoslagan fidoyi adiblardan biri. Shu bilan birga “Yo‘qotganlarim va Topganlarim” asari mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida alohida adabiy hodisa bo‘ldi. Adib o‘zbek yozuvchisi va shoirlarining jonli qiyofasini badiiy gavdalantirdi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov aytganlaridek: “Yo‘qotganlarim va Topganlarim” kabi kitobni faqar Said Ahmadgina yozishi mumkin edi. Bu kitob adabiyotimizning ma‘shum totalitar rejim zamonlari bosib o‘tgan mashaqqatli va ziddiyatli yo‘li, adiblarimiz qanday og‘ir sharoitda va vaziyatlarda yashab ijod etgani, o‘shanday zamonlarda ham asl insoniy fazilatlarni saqlab qolgani, noyob badiiy durdonalar yaratishga erishgani to‘g‘risida haqqoniy tasavvur beradi”.

Said Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asari yozuvchining hayot yo‘li, boshidan kechirgan voqealari va uchratgan insonlari orqali hayot falsafasini yoritib beruvchi muhim xotira asaridir. Asarda muallif o‘z taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan quvonchli va og‘ir damlarni samimiy va hayotiy tarzda tasvirlaydi. Shu orqali o‘quvchi nafaqat yozuvchining shaxsiy hayoti, balki o‘sha davr muhitini, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham chuqurroq anglaydi. Asarda yo‘qotish va topish tushunchalari hayotning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Muallif yo‘qotgan insonlari, imkoniyatlari va vaqt orqali hayotning qadrini yanada chuqurroq his qilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hayot davomida topgan do‘stlik, tajriba, ma‘naviy boylik va insoniy fazilatlar uning hayotiga katta mazmun bag‘ishlagani ta‘kidlanadi. Asarning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quvchini hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi. Muallif o‘z xotiralari orqali inson uchun sabr, matonat, sadoqat va insoniylik kabi fazilatlar qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Har bir voqea va xotira orqali insonning hayotda duch keladigan sinovlari uni yanada kuchli va dono qilishi g‘oyasi ilgari suriladi. Xulosa qilib aytganda, “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asari nafaqat xotira janridagi badiiy asar, balki hayot saboqlariga boy, ma‘naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim asardir. U o‘quvchini o‘tmishdan saboq olishga, insoniy qadriyatlarni qadrlashga va hayotning har bir lahzasini e‘zozlashga chorlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 320 b.
2. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya S. Ahmad 100 yilligi.
3. Said Ahmad. Tanlangan asarlar: II jildlik. III jild: Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2000. – 336 b.
4. S. Ahmad. "Kiprikda qolgan tong".